

QADIMGI TURKIY TILDA FE'L VAZIFA SHAKLLARINING IFODALANISHI

Sharifova Marjona

Samarqand davlat universiteti talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:	<i>ushbu maqolada fe'lning funksional shakllari — harakat nomi, sifatdosh va ravishdoshlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada qadimgi turkiy tilda uchragan bu shakllarning semantik-funksional xususiyatlari, fonetik o'zgarishlari, shuningdek ularning zamonaviy o'zbek tilidagi izlari ham ko'rsatib o'tiladi.</i>
<i>Received: 12.11.2025</i>	
<i>Revised: 13.11.2025</i>	
<i>Accepted: 14.11.2025</i>	
KALIT SO'ZLAR:	
<i>fe'l, vazifa shakllari, harakat nomi, masdar, sifatdosh, ravishdosh, hozir o'zbek adabiy tili.</i>	

Fe'lning asosiy grammatik vazifasi kesim bo'lib kelishdir. Shu bilan birga, fe'lning ayrim shakllari kelishik, egalik affikslarini ham qabul qilib, gapda ega, aniqlovchi, toldiruvchi yoki hol vazifasida keladi. Shunga ko'ra, bunday shakllar fe'lning funksional shakllari hisoblanadi. Harakat nomlari, sifatdosh va ravishdosh shakllari fe'lning funksional shakllarini tashkil etadi. Fe'lning funksional shakllarida, bir tomondan, fe'lga xos belgilar mavjud bo'lsa, ikkinchi tom ondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalari bo'yicha bu shakllar boshqa so'z turkumlariga yaqin turadi. Bu jihatdan harakat nomlari otga, sifatdosh shakllari sifatga, ravishdosh shakllari ravishga yaqin turadi. Harakat ma'nosining mavjudligi, bolishsiz shaklining -ma/ -ma affiksi bilan hosil bolishi, fe'l darajalari ko'rsatkichlarining mavjudligi, zamon shakllarini hosil qilishda ishtirok etishi va shu kabilar fe'lning funksional shakllaridagi fe'llik belgilarini tashkil etadi. Kelishik, egalik affikslarini qabul qilishi va gapda ega, aniqlovchi, toldiruvchi yoki hol vazifasida ham kela

olishi bu shakllarning boshqa soʻz turkum lariga grammatik va funksional yaqinligini koʻrsatadi [1,170]. Shuningdek, qadimgi turkiy tilda feʼning vazifa shakllari haqida Abdurahmonov. Gʻ, Shukurov. Sh, Mahmudov.Q muallifligi ostida nashr etilgan “Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi” (Toshkent,2008) nomli darsligida, Abdushukurov B tomonidan tuzilgan “Qadimgi turkiy til” (Toshkent,2019) oʻquv qoʻllanmasida va shu kabi bir qancha adabiyotlarda maʼlumotlar keltirib oʻtilgan.

Eski oʻzbek tilida harakat nomining -maq -māk, -sh (-ish/-ish, -ush/-üş) affikslari bilan hosil boluvchi shakllari qoʻllangan. -maq/- māk affiksli shakl harakat nomining asosiy koʻrsatkichi sifatida eski oʻzbek tilida keng isteʼmolda bolgan. Egalik affiksi qoʻshilganda, -maq/- māk affiksi oxiridagi jarangsiz [q,k] undoshlari ikki unli oʻrtasida jaranglilashib, [gʻ], [g] undoshlariga oʻtadi: barmagʻim (barmaq+im), kelmāgim (kelmāk+im) kabi. Harakat nomining -maq -māk affiksli shakli turkiy tilarda qadim dan qoʻllanib keladi: N.Rahmonov va Q.Sodiqovlar muallifligida chiqqan “Oʻzbek tili tarixi” darsligida harakat nomi shakli “Masdar alomati” deb keltirilgan. Turkiy masdar ikki xildir: biri — feʼl masdari, ikkinchisi — sifat yoki otga qoʻshilib xoslangan masdarlar. Feʼl masdarlaridan biri -maq, -māk qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan turidir. Bu qoʻshimcha shaxs koʻrsatkichini olmagan feʼllarga qoʻshilib keladi: almaq, turmaq, ketmāk, kelmāk [5,134].

Sifatdosh formalari. Qadimgi turkiy tilda sifatdoshlar ham feʼllik, ham sifatlik xususiyatlariga ega. Sifatdoshlar quyidagi affikslar orqali hosil boʻladi:[2,57]

-dāči, -dači, -tači, -täči affiksi: Man qazghanmasar türk bodun oltächi arti (Mch, 33) — Men gʻalaba qilmaganimda, turk xalqi oʻladigan edi. - r (-ar, -är, -ir, -ur, -ür) affiksi: Oʻguzda äki üç sümüz, kalar-miz bar-mu-. Oʻgʻuzdan ikki-uch ming urush qilib keladigan lashkarimiz bormidi.

-mīš, -miš, mīs, - mis, -muš, -müš affiksi: qaltači-biz, öz ici tasīn tutmīs-tag-biz-qurshovda qolajakmiz. Vujudning ichu tashini tutgandek boʻlamiz.

-ğüči, -güči, -quči, -küči qoʻshimchasi: ol yirgarii barsar, tiirk bodun olğüčisan - U yoqqa borsang, turk xalqi, oʻladigansan [5,151]

- sīg, -sig, -suğ, -süg, -saq, -säk affiksi: Šantug baliqa, taluy ögüzkä tägsīg yoq ärmis. Shantung shahriga, dengiz-u daryolarga [katta suvlarga] yetgani yoʻq edi.

-duq, -dük, -tuq, -tük qoʻshimchasi: anta kisra tagri bilig bartük üçün ozüm-ok qagan qışdım. Oʻshandan soʻng, tangri bilim bergani uchun, oʻzim-oq xoqonni qistadim.

-ğu, -gü, -qu, -kü qoʻshimchasi: topulğuluq alp ärmīs-yengadigan alp ermiş.

-gli, -gli qoʻshimchasi:

Bundan tashqari Abdushukurov. B muallifligi ostida nashr etilgan “Qadimgi turkiy til” nomli o‘quv qo‘llanmada sifatdoshning quyidagi shakllari ham uchraydi: -asi, -asī qo‘shimchasi: yigmasī bān ārtim — bilga Tonuquq -yig‘adigani men edim -bilga Tonyuquq.

-ma, -mä qo‘shimchasi: uduzug‘ma ulug‘iṣṣad ārti -xushyor qiladigan ulug‘i shad edi.

Ravishdosh formalari. Ravishdoshlar o‘z holicha kesim bo‘lib kela olmaydigan, tuslanmaydigan, fe‘llarga qo‘shimcha ma‘no beruvchi fe‘l shaklidir. Ravishdoshlar qo‘shma fe‘llarning etakchi komponenti bo‘lib keladi. Ravishdoshlar quyidagicha qo‘shimchalar ishtirokida voqelanadi: [3,44]

-a, -a affiksli ravishdosh: Tagri yarliqa ucün okus tayin. Tangri yorliqagani uchun ko‘p deya urushdik.

-u (-yu), -u (-yu) affiksli ravishdosh: yogan bolsar, üzgültik alp ärmis. Yo‘g‘on tortsa, uzadigan alp emish.

-pan, -pan / -ban, -bān qo‘shimchasi: bir erig alīpan urdī. Bir kishini olib hujum qildi.

-qali, -kali / -gali, -gali qo‘shimchasi: icikkali ucün tagri ol tamis arinc. Taslim bo‘lgani uchun tangri o‘l demish.

-yin, -yin qo‘shimchasi:

-mati, -madi, -mati, -madi / -matin, -madin, -matin, -madin qo‘shimchasi: Tün udīmatī, kündüz olurmatī -tun uxlamay, kunduz o‘tirmay.

-p , -ip, -īp, -up, -ūp qo‘shimchasi: Kü eṣidip tağdaqī inmiz -xabar eshitib, tog‘dagilar pastga tushdilar.

Qadimgi turkiy tilda ravishdoshning nisbatan kamroq qo‘llanuvchi qo‘shimchalari ham mavjud:

-yīn, -yin qo‘shimchasi ayrim fe‘llarda uchraydi. Bu affiks bilan yasaluvchi ravishdoshning inkor formasi va funktsiyasi jihatidan -matī, -māti, matīn, -mätin bilan hosil bo‘luvchi ravishdosh to‘g‘ri keladi. Uning bo‘lishli shakli ayrim misollar qadimgi turkiy tilda bor: bolmayīn, qaldurmayīn; ...bodun bolsun teyin. Xalq bo‘lsin deb, ... oluruṣ teyin temiš -o‘tiring deb aytdi.

ī, -i qo‘shimchasi: alī-olib, qodī - qoyib, yazī -yozib, eti -etib, eriti -eritib, tegi -erishib.

Umuman olganda, qadimgi turkiy tilda fe‘lning funksional shakllari tilning morfologik tizimida fe‘lning universalligi va boshqa so‘z turkumlariga o‘tish imkoniyatini yaqqol ko‘rsatadi. Bu shakllar keyingi davr o‘zbek tili grammatikasining shakllanishida asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Gʻ., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. - Toshkent : Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 528 b.
2. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. - Toshkent, 2019. - 105 b.
3. Азимов И., Раҳмагов М. Қадимги туркий тил. - Тошкент, 2005. - 133 б.
4. Omonov A. Qadimgi turkiy til. - Namangan, 2019. - 90 b.
5. Rahmonov N., Sodiqov Q. Oʻzbek tili tarixi. - Toshkent : Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. - 224 b.

